

Ona tilim, sarchashmangdan sarxush dilim!

ILM OLMOQQA INTILISH – HAR BIR MUSLIM VA MUSLIMA UCHUN FARZDIR



Aqli odam kulfatni oldindan ko'radi va o'zini panaga oladi. Tajribasizlar esa olg'a yurib jazolanadilar.



ZIYO CHASHMASI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI GAZETASI

22.10.2021 №8 (293) ISSN-2010-9393 ziyo-chashmasi@umail.uz 1993-yil 21-martdan chiqa boshlagan

“TEXNOWAYS” TEXNOLOGIK RIVOJLANISH MARAFONI TASHKIL ETILDI



Yoshlarni innovatsion, texnologik, ilmiy va startap loyihalarini izlab topish, ularning loyihalarini takomillashtirish hamda tijoratlashtirish ko'nikmalarini shakllantirish uchun innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Innovatsiyalarni joriy qilish ofisi hamda institutimiz hamkorligida “Hududiy Innovatsion g'oyalar” ko'rgazmasi hamda “Texnoways” texnologik rivojlanish marafoni tashkil etildi.

Tadbirida institutimiz vakillari, Jizzax politexnika instituti, O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabalarini ishtirok etishdi. Marafonda o'zining novatorlik ishlanmalari bilan ishtirok etayotgan ishtirokchilar 2 ta “Eng yaxshi dasturiy ta'minot”, “Eng yaxshi texnologik yechim” yo'nalishida qatnashdi.



Institutimiz professor-o'qituvchilari hamda talaba-yoshlar ishtirokida O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod ko'rsatgan siyosiy partiyalarning ishonchli vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda.

«Kelajaging uchun ovoz ber», shiori ostida uyushtirilayotgan mazkur tadbirlar davomida partiya vakillari tomonidan yoshlarga saylov borasidagi yangiliklar hamda saylovoldi dasturlari haqida tushunchalar berilyapti.

IJARA TO'LOVNING BIR QISMI QOPLAB BERILADI

Ijara huquqi asosida yashaydigan talabalarining oylik ijara to'lovi bir qismini qoplab berish davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisobga qo'yilgan ko'chmas mulk ijara shartnomasiga muvofiq ijara huquqi asosida yashaydigan ariza beruvchilarga nisbatan tatbiq etiladi.

Ro'yxatga olingan doimiy yashash joyi doirasida (tuman, shahar miqyosida) ariza beruvchilarga oylik ijara to'lovining bir qismini qoplab berish amalga oshirilmaydi.

— Bitta turar joyda ikki va undan ortiq talaba ijara huquqi asosida yashagan holatlarda ularning barchasi ijara shartnomasida qayd etilgan bo'lishlari shart.

— Mazkur tartib davlat OTMning faqat kunduzgi ta'lim shaklida o'qib, ijara huquqi asosida yashaydigan talabalarga nisbatan tatbiq etiladi.

Bunda ariza beruvchi tegishli ma'lumot yoki hujjatlarni quyidagilardan biriga topshiradi:

— O'zi ta'lim olayotgan fakultetning yoshlar bilan ishlash bo'limi dekan o'rinbosari;

— OTMning talabalarini turar joy bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi

bo'limga.

— Mas'ullar 1hafta davomida ariza beruvchi ma'lumotlarining ijtimoiy mezonlarga muvofiq-likini o'rganadi;

— So'ng ma'lumotlarni umumlashtirib, ko'rib chiqish

va xulosa berish uchun navbatdagi haftaning birinchi kunida talabgorlarni tanlab olish komissiyasiga taqdim etadi;

— Komissiya bir ish kunida talabgorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganib chiqib, qaror qabul qiladi;

— Davlat OTM rektori (filial direktori)ning buyrug'i rasmiylashtirilib, arizalari qanoatlantirilgan talabgorlar to'g'risidagi tegishli ma'lumotlar va ularning ro'yxati to'lovlarni amalga oshirish uchun buxgalteriyaga taqdim etiladi;

— Arizasi ijobiy hal etilgan talabalar uchun ijara to'lovining bir qismi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan ular ariza bergan sanadan boshlab qoplab beriladi.

Ijara to'lovining bir qismini qoplab berish:

— O'quv yili davomida (har yili 1-sentabrdan 1-iyulgacha) yoki o'qitish dasturi bo'yicha o'quv yilining davomiylikiga qarab belgilanadi.

— Ariza beruvchi tomonidan har oyning 7-sanagigacha arizalar mas'ullarga taqdim etilganidan so'ng amalga oshiriladi.

Ushbu muddatlar tugagandan keyin berilgan arizalar ko'rib chiqilmaydi.

24 OKTABR 2021-YIL O'ZBEKISTON PREZIDENTI SAYLOVI

PREZIDENT SAYLOVI — DEMOKRATIK YANGILANISH VA ISLOHOTLAR KO'ZGUSI!

Ayni kunlarda mamlakatimizda joriy yil 24-oktabr kuni bo'lib o'tadigan muhim siyosiy jarayon — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga qizg'in tayyorgarlik ketmoqda. Bu saylovlarning nafaqat mamlakatimizda, balki butun mintaqada tinchlik va o'zaro manfaatli hamkorlik asosiga qurilgan taraqqiyotini belgilab berishda o'rni beqiyos.

So'nggi besh yilda mamlakatimizda barcha jabhalarda saylov uchastkalarida faoliyat olib boradigan xotin-qizlarning salomatligini saqlashdagi qiyinchiliklar, fuqarolarning saylovlardagi ishtiroki kamayib ketishi kabi salbiy holatlarning oldi olinadi. Shu tariqa saylovchilar va kuzatuvchilar uchun qulay sharoit vujudga keladi.

Shuningdek, ob-havo sohib ketgan qish qirovli kunlarda saylov uchastkalarida faoliyat olib boradigan xotin-qizlarning salomatligini saqlashdagi qiyinchiliklar, fuqarolarning saylovlardagi ishtiroki kamayib ketishi kabi salbiy holatlarning oldi olinadi. Shu tariqa saylovchilar va kuzatuvchilar uchun qulay sharoit vujudga keladi.

Yana bir qator barchamiz bilishimiz zarur bo'lgan yangiliklar quyidagilardan iborat:

— Xorijda istiqomat qilayotgan O'zbekiston fuqarolarini, diplomatik vakolatxonalarining konsullik hisobida bo'lishi yoki bo'lmagligidan qat'iy nazar, saylovchilar ro'yxatiga kiritish tartibi, shuningdek, chet davlatlarda saylovchilar yashayotgan yoki ishlayotgan joyda ko'chma qutildarda ovoz berishining huquqiy asosi yaratildi.

— Qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida, harbiy qismlarda tashkil etilgan saylov uchastkalarini kuzatuvchilar o'z tashrifi haqida kamida 3 kun oldin xabardor qilish tartibi belgilandi.

— O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va mahalliy vakillik organlariga saylovlar dekabr oyidan oktabr oyi uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasiga ko'chirildi. Bu bilan, eng avvalo, saylovlardan keyin oliy davlat organlarini o'z vaqtida shakllantirish va muhim siyosiy-huquqiy qarorlarni qabul qilish uchun tegishli zamin yaratiladi.

— Qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida, harbiy qismlarda tashkil etilgan saylov uchastkalarini kuzatuvchilar o'z tashrifi haqida kamida 3 kun oldin xabardor qilish tartibi belgilandi. Saylov komissiyalari a'zolariga haq to'lab berish, kompensatsiya to'lash hamda ish haqini hisoblashning aniq tartibi o'rnatildi.



KELAJAGING UCHUN OVOZ BER!

Mamlakatimizda shu kunlarda ulkan siyosiy jarayonlar ketmoqda. Shaxsan men bu jarayonni qiziqish bilan kuzyatayman. Chunki, men ilk bor saylovchi sifatida ovoz berishda ishtirok etaman. Yurtimizda yoshlarga katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Har jahada davlatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Navoiy viloyatidan kelib o'qiyotganligim sababli saylovda biz yoshlarga imkoniyat yaratib berildi. Ya'ni, endi men o'zimning viloyatimga borib o'tirishim shart emas. Jizzax viloyatidan turib saylovda ishtirok etaman.

Yoshlarga e'tibor har bir nomzodning saylovoldi dasturida ham o'z ifodasini topayapti. Mustaqil O'zbekistonning yosh fuqarosi sifatida barcha nomzodlar dasturi bilan tanishib, o'zim munosib ko'rgan insonga ovoz

bermoqchiman.

Qachonki biz barchamiz o'zimizning birgina bo'lsa ham ovozimiz mamlakat kelajagi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini his etsak va saylovda munosib ishtirok etsak, ana shunda mamlakatimizda demokratik tamoyillar tobora mustahkamlanib boradi. Shunday ekan, munosib nomzodni tanlab, ovoz beraylik.

Bahodir BOZOROV,
tarix fakulteti talabasi.

(Davomi. Boshi 1-sahifada)

— Siyosiy partiyalar saylov kampaniyasi davrida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar uchun g'aznachilikda hisobvaraqlar ochilishi to'g'risidagi norma chiqarildi.

— Saylov komissiyalarining nomzodlarning saylovchilar bilan uchrashuvlarini tashkil etishga oid vazifasi chiqarib tashlandi. Saylovoldi tashviquoti davrida davlat resurslaridan foydalanish taqiqlandi. Saylov natijalarini e'lon qilish muddatlarini asossiz cho'zilishining oldini olish maqsadida saylov komissiyalari qarorlari ustidan shikoyat muddati 10 kundan 5 kunga qadar qisqartirildi.

— Siyosiy partiyalar tomonidan saylovdan oldin oraliq va saylovdan so'ng yakuniy moliyaviy hisobotlarni, shuningdek, Hisob palatasining partiyalar faoliyatini tekshirish natijalarini e'lon qilish tartibi joriy etildi. Shu bilan birga, siyosiy partiyaning saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratilgan davlat mablag'lari yuzasidan saylov kuniga qadar oraliq hisobotini va saylov natijalari e'lon qilinganidan keyin yakuniy hisobotini Markaziy saylov komissiyasiga taqdim etishi ko'zda tutilyapti.

Xalq deputatlari tuman(shahar) kengashlariga saylov o'tkazuvchi okrug saylov komissiyalari tugatilishi va ularning vakolatlari tuman(shahar) saylov komissiyalariga o'tkazilishi nazarda tutilmoqda. Mazkur o'zgarish natijasida 54 mingdan ortiq a'zodan iborat 5739 ta okrug saylov komissiyalari tugatiladi va optimizatsiya

hisobiga davlat byudjetining 33,2 mlrd so'm miqdoridagi mablag'i iqtisod qilinadi.

Mazkur yangilik va o'zgarishlar milliy saylov qonunchiligini umumiy tirof etilgan xalqaro saylov standartlariga yanada muvofiq-lashtiradi, saylov jarayonlari ochiq va oshkora o'tishi ta'minlanishiga xizmat qiladi. Eng muhimi, O'zbekistonning jahon mam-lakatlari demokratiya indeksidagi o'rn

Saylov uchastkalari saylovga kamida 60 kun qolganida, qoida tariqasida, saylovchilar soni kamida 20 nafardan va ko'pi bilan 3 ming nafardan oshmagan holda tuzilishi belgilab qo'yilgan. Harbiy qismlarda, O'zbekiston Respublikasining chet dav-latlardagi diplomatik va boshqa vakolat-xonalari huzurida, shuningdek, o'lis va borish qiyin bo'lgan chekka qishloqlardagi fuqa-

PREZIDENT SAYLOVI — DEMOKRATIK YANGILANISH VA ISLOHOTLAR KO'ZGUSI!

yaxshilanishi kafolatlanadi.

Ma'lumki, Saylov kodeksining 10-mod-dasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazish bo'yicha saylov uchast-kalari shahar va tumanlar hokimlarining taqdimnomasiga ko'ra, okrug saylov komissiyasi tomonidan tuzilishi belgilab qo'yilgan bo'lib, unda saylovchilarga imkon qadar qulaylik yaratish uchun saylov uchastkalari tegishli hududlarning chega-ralari e'tiborga olingan holda tuzilishi ta'kidlangan. Shahar va tumanlardagi harbiy qismlar joylashgan hududlarda tuzilgan "yopiq" saylov uchastkalari esa harbiy qismlar joylashgan manzildagi okrug saylov uchastkalari tarkibiga kiritilishi lozim.

rolar turgan joylarda, qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida saylov uchastkalari ana shu muddatda, ayrim hollarda esa saylovga kamida 7 kun qolganida tuziladi.

Ayni paytda Jizzax viloyatidagi mavjud 524 ta saylov uchastkalarida mazkur kampaniyani talab darajasida o'tkazish maqsadida puxta taraddud ko'rilmogda.

Barcha Saylov uchastkalari Davlat bayrog'i, gerbi, ovoz berish kabinallari, qutilari va mobil (yotib qolgan saylovchilar uchun) qutilar, O'zbekiston Respublikasi Prezi-dentligiga nomzodlarning avtobiografiyasi hamda saylov oldi dasturlari bitilgan plakatlar, qattiq va yumshoq mebel va bosh-



qa zarur jihozlar bilan to'liq ta'minlangan. Internet tarmog'iga ulangan, kompyuter, aloqa vositalari hamda zarur miqdordagi kanselyariya va boshqa kerakli buyumlar bilan jihozlangan.

Markaziy, viloyat, tuman hamda siyosiy partiyalarning bosma nashrlari jamlanmasi, Saylov kodeksi va saylovni o'tkazish bilan bog'liq boshqa zarur hujjatlar taxt qilib qo'yilgan, uchastka, navbatchilik va boshqa yuritilishi lozim bo'lgan jurnallar to'ldirib borilmoqda. Saylov uchastkasida rais, o'rinbosar va kotibdan tashqari yana 12 nafar komissiya a'zolari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Imkoniyati cheklangan fuqarolar uchun maxsus aravachalar kirish yo'lakchasi mavjud. Audio ma'lumotlar berish uchun zarur texnik jihozlar o'rnatilgan. OAV vakillari, xalqaro kuzatuvchilar va siyosiy partiyalar vakillarining faoliyat olib borishlari ham hisobga olingan.

Jami 6452 nafardan iborat saylov komissiyasi a'zolarining bilim va ko'nikmalari, tajribalari yetarli. Ayni paytda komissiya a'zolarimiz tomonidan uyma-uy yurib, saylovchilar ro'yxati shakllantirilmoqda.

Shavkat SHARIPOV,
4-Jizzax okrug saylov komissiyasi raisi.
Jizzax davlat pedagogika instituti rektori.



USTOZ — MISLI

YONIB TURGAN SHAM!

O'qituvchi, murabbiy, ustoz. Oddiygina bu so'zlar zamirida shunchalik katta ma'no va mazmun borki, uni ta'riflashga ba'zan so'z ham o'zlashtiriladi. Zero, har qaysi inson o'qituvchining qo'lida savod chiqaradi, murabbiy va ustozlardan ta'lim oladi, tarbiya topadi. Bugun biror kasbni egallab, Vatani va el koriga yarayotgan ekanmiz, avvalo, ulardan minnatdor bo'lishimiz, tabiiy, albatta. Ustoz va murabbiy!

Biz, barchamiz, yoshimiz, kasbu korimizdan qat'iy nazar, bu so'zlarni eshitganimizda ko'nglimizdan faqat iliq fikrlar-u yorqin xotiralar o'tadi. Shu tobda ko'z o'ngimizda qo'limizga qalam tutqazib, endigina ilm olamiga yetaklagan birinchi ustoz-muallim, qiynalib turganimizda masalaning tugunini yechishga yordam qilgan, birgina shu amali bilan umr bo'yi yodimizda qolgan kishi gavlalanadi. Qalbimizda unutilmas iz qoldirgan qadrdon maktabimiz va uning bag'rida kechgan beg'ubor yillarimizni bizga bilim bergan, inso-

niylik fazilatlarini o'rgatgan mehribon o'qituvchi va murabbiylarimizni katta hurmat va ehtirom bilan eslaymiz.

Aziz ustoz va murabbiylar! Har qaysi inson ko'nglida chuqur hurmat-ehtirom va cheksiz minnatdorlik tuyg'ulari, shu bilan birga, hech qanday boylik bilan o'lchab, ado qilib bo'lmaydigan qarzdorlik hissi paydo bo'ladi.

Bu yorug' o'lamda onadek mehribon, otadek g'amxo'r, har birimiz uchun aziz va mo'tabar bo'lgan ulug' zot — bu muallim va murabbiylardir. Ustozlarimizni faxr bilan

tilga olar ekanman, ularning orasida fidokor va jonkuyar Sultonmurodov Dilshod Botirovich ustozimning o'rinlari beqiyosdir. Bu ulug' zot hayotimda tub burilish yasashga sababchi bo'lgan ustozlarimdan biridir. Maqsad sari faqat olg'a intilishim kerakligini

uqtirgan ham ustozim, ham otam oldida va qalbi quyosh nurlaridek iliq bo'lgan barcha ustozlarimning oldida boshim yerga tekkuncha ta'zim qilaman. Ta'zimdaman!

Mehridaryo ustozlarim! Qalbinga ilm nurlarini ekkaningiz uchun sizlardan ming bora minnatdorman.

Ularni qancha olqishlasak, qancha sharafilasak shuncha oz! Siz ustozlarning poyingizga guldastalar sochib, hurmatlab e'zozlasak arziydi. Bugun sizlarning ulug' ayyomingiz bilan yana bir bor muborakbot etaman.

Shogirdlaringiz va farzandlaringizning kamolini ko'rish barchangizga nasib etsin!

Muxlisa BOTIROVA,
chet tillar fakulteti talabasi.

TILGA MEHR, AVVALO, RUHDA BO'LISHI KERAK

butun olam haqidagi kichik bilimlardan boshlab to buyuk tafakkur mahsullarigacha ongga, vujudga qabul qilish vositasi, albatta, til — ona tili. Milliy til sofligisiz, faolligisiz biror milliylik jabhasini taraqqiy ettirib bo'lmaydi.

Siyosiy tomondan ham, ijtimoiy yoki iqtisodiy sohada ham davlat tilining o'rni muhim ekan, uning mavzusi har doim e'tirof va e'tibor markazida. Xavfsizligi ham. O'zbek tiliga davlatni birlashtiradi, davlatdagilarni yagona milliy maqsad atrofida jipslaydi, degan g'oya ostida aslan o'ylab, hisoblab, qonuniy ustunlari qatorida bu birlamchi vositasiz, davlatchilikni to'la shakllantirib bo'lmaydigan yuqori anglagan holda ilk bor davlat timsollari tasdig'idan oldin dastlab bu qaror yuzaga keltirilgan.

Hozirgi kundagi muhim tuzilma — davlat tilini rivojlantirish departamentining vazifalari yurt davlat tili bilan bog'liq masalalar ustida shug'ullanish ekan ma'lum. Milliy til egalari — xalq, millatning biz a'zolari bu tilning faol, jonkuyar

tashabbuskori bo'lish kerakligini anglagan holda buni amalda ko'rsatishga tutinishimiz talab etiladi.

Tilning sofligini saqlash uchun muassasalarda, jumladan ta'limning ilk ostonalaridayoq, ilk bosqichlaridayoq o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi sofligiga ehtiyotkorona yondashilsa, tilning ilmiy, ham ma'naviy qonuniyatlariga haqida, savodxonligi shakllantirilsa, til, qolaversa, nutq buzilishining oldini oladigan to'siqlardan biriga ega bo'linadi. Tilga mehr, avvalo, ruhda bo'lishi kerak, ongga singdirilishi kerak. Busiz tilning taraqqiyoti uchun xizmat qilib bo'lmaydi.

Hilola TILOVOVA,
o'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi.

YANGI O'ZBEKISTONNING MUSIQIY TA'LIM SOHASIDAGI ISTIQBOLLARI

Yurtimizda musiqa, madaniyatni rivojlantirish maqsadida yurtboshimiz tomonidan yaratib berilayotgan sharoitlar, madaniyat uylari, musiqa maktablari va ixtisoslashtirilgan san'at o'quv dargohlari tashkil etilmoqda. Bundan tashqari imkoniyati cheklangan yoshlarni musiqaga yo'naltirish va ular uchun sharoitlar yaratishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash ham e'tiborga olinib, qayta ko'rib chiqilmoqda.



Madaniyat vazirligi tomonidan berilgan axborotlarga ko'ra, ko'rishi zaif va ko'zi ojizlar, nogironlar uchun bepul Musiqa va san'at maktabi tashkil etilgan bo'lib, endilikda qarorlarga o'zgartirish kiritilgan holda, nogiron bolalar, ko'rishi zaif va ko'zi ojizlar ham musiqa va san'at maktablarida bepul tahsil olishlari ko'zda tutilgan. Joriy yilda Respublika bo'ylab bolalar musiqa va san'at maktablarida 355 nafar nogiron o'quvchilar tahsil olishdi, shundan 320 nafari ko'zi ojiz bolalar hisoblanadi. 2020-2022-yillarda Bolalar musiqa va san'at maktablarida o'qish istagini bildirgan, nogironligi bor 650 nafargacha o'quvchini qamrab olish nazarda tutilgan.

Bu, albatta, juda katta ko'rsatkich bo'lib, san'at va madaniyat rivojida ahamiyatlidir. Nega aynan nogironligi bor, ko'zi ojiz yoki ko'rishi zaif o'quvchi yoshlar musiqa, san'atga qiziqish bildirishi

muhim degan savol bo'lishi mumkin. Bunga sabab, odam organizmi shunday mukammal yaratilgan, hatto ko'rishi organida nuqsoni bo'lsa unda eshitish organi juda yaxshi rivojlangan bo'ladi. Bu esa musiqani his qilishi, uni eshitish va qabul qilishi sezilarli darajada yuqori bo'ladi, deganidir. Bu ulardan buyuk kompozitorlar, xonandalar chiqish ehtimoli kattaligini bildiradi. Izlanishlar natijasida shunga amin bo'ldimki, sobiq Sho'ro hukmronligi davridan shu davrgacha hech bir davlat rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev kabi yoshlarning musiqiy ta'lim-tarbiyasiga bu darajada katta e'tibor bermaganlar. Bundan tashqari prezidentimiz ilgari surgan 5 tashabbusning birinchi bandi ham aynan musiqaga yo'naltirilgandir.

Maktuba KOBULOVA,
musiqiy ta'lim yo'nalishi talabasi.

Gazetamizda berib borilayotgan materiallarni telegram kanalimizning quyidagi manzili @ziyo_nevuz orqali kuzatib boring.
Biz bilan bog'lanish: +99899 506 22 46, +99893 298 22 12

"SAYFULLONI IZLAYOTGANLAR" tarmoqlardan "Sayfulloni izlayotganlar" ancha ko'payib qoldi. Sezgan bo'lsangiz, Navoiy viloyati ijodkorlari tomonidan tasvirga olinayotgan "Sayfulloni izlab" seriali haqida mulohazalarimizni bildirmoqchimiz.

Talabalar o'rtasida serialda ishlatilayotgan so'zlar ko'p ishlatilyapti. Ochig'ini aytganda, videotasvirni olishda an'anaviy qoliplardan ancha chiqilgan. Bu qaysidir

yengilmagan. Xolidning jang maydonida harakatlanishi dushman qo'shini qalbiga qo'rquv solib qo'ygan. Arabistondan tashqarida harbiy operatsiyalarni boshqargan



ma'noda yoshlar auditoriyasi uchun yangi atmosfera bo'lib xizmat qilayotgandir. Biroq, dialoglarning har birida ko'cha so'zlari, so'kinishlar kishini ensasini qotiradi.

Mavzuimizdan biroz chekinib tarixga murojaat qilsak. Sayfullon — Allohning qilichi degani. Ushbu nomga jahon tan bergan sarkarda, harbiy akademiyalarda o'rgatiladigan ko'plab taktik manevrlar va strategiyalar muallifi, sahoba Xolid ibn Valid sazovor bo'lgan.

Makkada tug'ilgan Xolid ibn Valid ibn Mug'iyra yoshligidan chavandozlik va kurash sirlarini mukammal o'zlashtiradi. Otasi uning pahlavon, metin irdoli, kuchli jangchi bo'lishi uchun tarbiyasi bilan alohida shug'ullangan. Dastlab, mushriklar safida Uxud tog'ida musulmonlarga qarshi jang olib borgan (625).

Keyinchalik Muhammad (s.a.v.)ning Xolid ibn Validga yo'llagan maktubi sabab Islom diniga mehri tushib ushbu islomni qabul qiladi. Shundan so'ng, Mut'a, Xunayn, Makkani mushriklardan ozod qilish fathlarida Halab va Quddusni qamal qilishda qahromonlik ko'rsatadi. 43 ta yirik janglarda qatnashgan. Lekin biror marotaba

va o'zining harbiy yurishlari natijasida Arab xalifaligi uchun yangi xorijiy hududlarni bosib olgan birinchi musulmon qo'mondoni sifatida tarixga kirdi.

Kutilmaganda birinchi zarba berish, keskinlik, qo'rqmaslik, harakatchanlik aynan uning xislatlaridan bo'lgan. Tarixdagi barcha zamondosh muarrixlar uni buyuk kuch-qudrat sohibi ekanligi haqida yozib qoldirishgan. Xolid ibn Valid nafaqat arab millatlarining, balki Islom olamining faxridir.

Moziyning buyuk shaxslari kelajakda yangicha zaif holatda tasavvur qilinishi quvonarli holat emas. Ijtimoiy tarmoqlardan "Sayfulloni izlayotganlar" bu nomning asl egasini bilmog'i zarur.

Shu o'rinda savol tug'iladi. Serial ma'naviy yuksalishga xizmat qiladimi? Afsuski, yo'q! Kino ijodkorlari bilishganida edi, ulug' zotlar nomiga dog' tushirishmasdi. Yoshlar saviyasini oshirishga xizmat qiluvchi film suratga olishardi. Faqat kamchilik va noodatiy so'zlashuvni kulgu ostiga olishi bilan emas, yoshlarning ertangi kunga ishonch ruhini shakllantiruvchi ijodiyotlar yaratish aslida davr talabidir.

Islom KARIMBERDIYEV, tarix fakulteti talabasi.



XAT

ekan.
— Yo'q, yozing Dadajon. Qo'g'irchoq kerakmas o'zlari kelsinlar...

— Xop.
— Yana bir marta o'qib bering, dada.

Ali o'z qo'li bilan yozgan maktubni ikkinchi marta o'qiy boshladi.

U qizi bilib qolmasligi uchun o'ng qo'lida yozishni o'rgandi.

Endi chap qo'lida qizchasining aytganlarini onasiga yozyapti: "Onajon, qachon kelasiz..."

Nilufar ULUG'BEKOVNA, o'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

"Qizim, dadang yuborgan suratlarini ko'rdim. Biram chiroyli qiz bo'lib qolibsan. Maktab formasi juda ham yarashgan. Men ham seni sog'indim qizalog'im. Aqlli qiz bo'lib, a'lo baholarga o'qisang, keyingi safar qo'g'irchoq yuboraman.

Seni yaxshi ko'ruvchi Onang."
— Dadajon, onamning xati biram chiroyli-ya, o'zlari ham shunaqa chiroylimilar?

— Ha, qizalog'im. Sen ham onangdek chiroyli yozsang senga qo'g'irchoq yuborar



XONADOSHING YOMON BO'LSA, RANGI RO'YING SOMON BO'LAR!

Xuddi shunday, abituriyentlik vaqtim bir xonadoshim bo'lardi. Hali yosh bo'lishiga qaramay ichkilik va chekishni har kuni kechiktirmasdan olardi. Albatta, bunday kishilarda mas'uliyat tuyg'usi bo'lishi qiyin. Demochi bo'lganim, xonada navbatchilik, oziq-ovqat uchun va boshqa kerakli vajlar yuzasidan bo'ladigan xarajatlarga qo'shilmasdiyu, dasturxon tuzalsa, tayyoriga ayyor edi.

Xullas, bir kuni u bilan bog'liq bir holat ro'y berdi. Xonadoshlarning barchasini qorni och. Ovqatni ammalab qildik-u, non

olib kelishimiz kerak. Biror kishida pul qolmagan. Shunday sharoitda boshqa xonadoshimizning telefoni yo'qoldi. Hammamiz bir-birimizga qaraymiz. Telefonini yo'qotgan bola kimdan gumon qilayotganini aytib o'tirmadi.

Shu yo'sin ovqatlanib olish uchun tanishlarimiznikiga mehmonga ketdi. Kechga qaytganimizda xona tamaki tutuniga to'lgan ekan. Boshda sizga aytgan xonadosh alkogol ta'siridan sarxush kino tomosha qilar, ko'rpachaning ostidan pachkadagi pul ko'rinib turardi.

Telefonini yo'qotgan xonadoshimiz darhol unga yopishdi: "Telefonimni sen olgansan, uni sotib yuborgansan, xumoring bosildimi?" — ushbu so'zlar hamon qulog'im ostida turibdi.

Xullas, abituriyentlik davri tugab, talaba ham bo'ldik. Ilmi, yaxshi xonadoshlar bilan bir xonada turish nasib etdi. Shu o'rinda, barcha talabalarga xonadosh tanlashda adashmaslikni so'rab qolgan bo'lardim.

Mirjalol MAMATOV, jismoniy madaniyat fakulteti talabasi.

"SAVOBTALAB"

Qo'shnimiz qo'y so'yirdi. Olti oy boqibdi. Bir kun avval ko'proq yem bergan ekan, mazasi qochibdi. Bir kunda shunchalik ozib ketibdiki, o'n besh kilo go'sht qildi, xolos. O'g'lining aytishicha, uch yuz kilodan ko'proq yem yegan ekan...

Uning dardini eshitib o'tirsam, qo'shnimiz kirib keldi. Qo'yni savob uchun tarqatishini aytdi. Men o'n beshta paketga "olti oy boqilgan" qo'chqorning go'shtini bir kilodan qilib joyladim. Qo'shnimiz o'g'liga ularni bank boshlig'i, rais va shu kabi "odamlar"ga tarqatishini tayinladi. Gap orasida "savobtalab odammiz-da, ukajon", deb kuldi.

Go'shtlar aytilgan odamlarga berildi-yu, faqat bir kilosi ortib qoldi. Kalla va oyoqlari ham. Kelinoyimiz: — Qo'shnimiz Zamiraga beraylik, uch oy oldin turmush o'rtog'i vafot etgandi. Ayol boshi bilan bir o'zi olti bolani boqyapti.

— Ehh, aqlsiz xotin, buni pishirish uchun qaaancha o'tin kerak. Kalla bilan oyoqqa ham bir dunyo narsa

— Alo, dadasi, assalomu alaykum!

— Valaykum, nima bo'ldi tinchlikmi? Ovozning boshqacha?

— Bolalaringiz aytishdi, o'qituvchingiz Saida opa qazo qilibdi, to'rtga chiqararkan.

— Olloh rahmat qilsin! Bizda hozir tushlik. Uyga ikki-da boraman.

Shuhrat bu xabardan og'irlashib ketdi. Ustozi unga hayotni o'rgatgan o'qituvchisi olamdan o'tibdi. Uning xayoliga maktab davridagi xotiralar birdan quyilib kela boshladi.

Aniq esida yo'q, yettinchi yoki sakkizinchi sinfligida bo'lgandi bu voqea. Sinfning eng oldi va a'lochi o'quvchisi edi. Sardorda hammaga o'rnak bo'lishi kerak. Yozgi ta'til boshlanishiga oz qolgan. Sinf-doshlar "kinoteatrga boramiz" deb qolishdi.

— Borsang, darsdan keyin boraver.

— Yo'q, so'nggi darsdan qochamiz, — deyishdi.

Teatrga kino keladigan o'sha kuni oxirgi dars fizika edi. Shuhrat va uning ikki yaqin do'stidan boshqa hamma qochdi. O'qituvchi faqatgina uchovlonga dars o'tdiyu, o'sha kuniyoq sinf rahbariga

arz qildi. Ertasi kuni baxtga qarshi birinchi soat adabiyot — sinf rahbarining darsi edi. Tabiiyki, o'sha kuni adabiyot darsi emas, tarbiyaviy soat o'tkazildi.

Uch qahramon oldi partalarga o'tib olgan. Qahramonlarning ko'kragi kerilgan. Qolganlar esa



ketadi. Yog'chi, yog'? O'zi zo'rg'a yasha-sa... Aqlsiz-sanda aqlsiz", deb jerkib berdi. — Savobning ham beliga tepasan. So'ng o'g'liga ortib qolgan go'shtni ham bankirnikiga olib borishini tayinladi. Erta-indin bankdan kredit olarmish...

Bularning hammasi, albatta "savob uchun". Ha aytganday, akamizning hammamizga tanish bir mashhur shiori bor: "Savob ishni har kim, har kuni qilishi kerak".

Hasan KULIBAYEV, rus tili va adabiyoti fakulteti talabasi.

HIKOYA

ayrilganni ayiq. Uchchovning menga o'zingni yaxshi ko'rsatish uchun, chaqimchilik qilding. Bu yomon odat, Ikromov! Nima bo'lsa ham xalq bilan, el bilan birga bo'l. Hozir uchchovning zo'ri ish qildek

HAYOT MURABBIYSI

mum tishlab o'tiribdi. O'qituvchi kirdi. Butun sinf salom berib o'tirgandan so'ng, Shuhrat ichiga sig'may gap boshlab ketdi:

— Biz aytdik ustoz, lekin bular ketib qoldi. "Yilning oxiri", dedik, "o'qituvchimizga gap tekkizmaylik", dedik. Yo'q, hammasi qochdi, quloq solishmadi...

Shu payt xonada momaqaldiroqdek tarsaki ovozi eshitildi. Shuhrat o'ng yuzini ushlab qoldi. Hamma hayron. Sinfning eng a'lochi o'quvchisi haqiqatni aytgani uchun shapaloq yeb oldi. Hech kim ustozning bunday qilishini kutmagandi. Yer chizayotgan bari chehralar "uch qahramon"ni kaltaklayotgan "jallod"da edi.

— Bo'linganni bo'ri yer, — gap boshladi Saida Akbarovna, -

deb o'ylayabsanlar, to'g'rimi? Olim bo'lmasalaring ham odam bo'linglar! Sizlarga aytadigan oxirgi gapim shu. Bu so'zlarni qanday tushunib talqin qilish ong-uz tafakkuringga bog'liq deb ustoz qo'li bilan "aybdorlar"ga o'tirishni ishora qildi. Dars tugagach "uch mushketyor"ga hech kim bo'lgan voqea haqida og'iz ochmadi. Sinf rahbarining aytgan so'zlari barchaga ibrat bo'ldi. Endi Shuhrat sinfdagilar bilan birga bamaslahat ish qila boshladi.

Shuhrat bu hayot sabog'ini o'ziga shior qilib kam bo'lmadi. U sinfdoshlari bilan birga "hayot murabbiysi"ni so'nggi manzilga kuzatib keldi.

Shahzoda JALOLIDDINOVA, o'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi.

USTOZLARIM, SIZGA MING TA'ZIM!

Hayot yo'limizga poydevor qo'yib,
Bor bilimingiz bizga berdingiz,
"Tibbiyot ilmida Ibn Sinodan
Tabobat sirini o'rgan", — dedingiz.

Gar xato qilsak biz jazoladingiz,
"Jazoning mevasi — bilim", — dedingiz,
Qancha o'qisak biz shuncha kam deya,
O'qib izlanishga siz o'rgatdingiz.

Zulfiyadek she'r yozib biz tinmagaymiz,
Sizlarni ta'riflab hech tolmagaymiz,
Ko'zlarga yosh olib biz eslagaymiz,
Barcha ustozlarim, sizga ming ta'zim.

Davlatning rahbarin o'qitgan — Ustoz,
Buyuk dabolarni o'qitgan — Ustoz,
Ne-ne zotlarga dars bergan — Ustoz,
Qadrli ustozim, sizga ming ta'zim.

Umringiz ziyoda kulgingiz boqiy,
Biz uchun nurlarga to'lsin qalbingiz,
Toki bizga bergan barcha bilimni,
Allobim ustozga "savob" deb yozsin.

Ustozlarim ko'rib ko'zga yosh oldim,
Sog'inib hissini yana his qildim,
Bugun aytmoqlikka men topdim fursat,
Aziz ustozlarim, sizga ming ta'zim.

Jannatdan joy bersin Allobim sizga,
Uyingizga fayz bersin Allobim sizga.
Ko'rgan-kechirganingiz yaxshilik bo'lsin,
Mebribon ustozlar, sizga ming ta'zim.

Ozoda MAXKAMBOYEVA,
maktabgacha va boshlang'ich ta'limda
xorijiy til yo'nalishi talabasi.

USTOZLAR

Maktabdagi ilk qadam, qo'ldan yetaklab
Borguvchi ustozlarim, bayram muborak.
Barcha mehr, ilmni o'zida to'plab
Berguvchi ustozlarim, bayram muborak!

Bog'cha, maktab, kollejdin uzluksiz ta'lim
Olmoq sizlar bilan, aziz ustozlar.
Sizlar-la bo'lamiz talaba, olim,
Boshqa barcha kasblar ham siz-la, ustozlar.

Derlar: "ustoz erur otangdek ulug'",
Ona kabi azizsiz, barcha ustozlar.
Bu kun ajoyib va naqadar qutlug'—
Birinchi oktabr, bayram, ustozlar.

Javohir MAMADIYOROV,
maktabgacha va boshlang'ich ta'limda
xorijiy til yo'nalishi talabasi.

EY, DO'STIM

Ey do'stim, bu dunyo o'tkinchidir,
Joningning jafolari oxiratga ketginchadir.
Duolaring ijobati, Haq taolaga yetginchadir.

Nazar solma hech birovning moliga,
Gar yiqilsa kulmagil abvoliga.
Ne bo'lsa ham taqdiringga shukur qil,
Tilovat qil o'tganlarning holiga.

Dunyoga ustunman degan qoldimi,
Azroil barining jonin oldimi?!
Sening ham kelar vaqt soating,
Shafqatsiz vaqt bir zungina toldimi?!

Soxibjon SHAROFIDDINOV,
o'zbek tili va adabiyoti
fakulteti talabasi.

ONA TILIM

Qalbindagi so'zlarim oqqa yozaman,
Yuragim quvonchdan chaqnaydi porlab.
Ikki so'z quloqqa chalinsa bexos,
Butun vujudimni hayajon chorlab.

U shunday buyukdir, e'zoda doim,
Yagona so'z ila millatlar bordir.
Yuragimda matbdir — mening o'z tilim,
Bir umr dilimda abadiy yordir.

Adiblar nazdidagi bitilgan she'rilar,
Sening ta'rifingni ko'kka ko'targan.
Men ham bu she'ringa xulosa yasay,
Dilimda bu so'zlar senga atalgan.

Dilyora BOYMUROTOVA,
o'zbek tili va adabiyoti
fakulteti talabasi.

TALABALIK ORZUSI

Bilim dargobida bilim olarmiz,
Ota-onamiz ishonchin doim oqlarmiz,
Fanlar sir-u asorin kun-u tun izlab,
Talabalik davrini orzu qilamiz.

Buyuk maqsad sari, doim intilib,
Qadamlarni sbaxdam bosamiz,
Kelajakka umid-la boqib,
Talabalik davrini orzu qilamiz.

Vatan ishonchin oqlagan holda,
Talpinamiz ezgu niyatlar sari.
Ilobim, bo'lay deb talaba,
Talabalik davrini orzu qilamiz.

Tun-u kun Xudodan omad so'raymiz,
Kamolga yetishish baxtin so'raymiz,
Barchaning talaba bo'lishin tilab,
Talabalik davrini orzu qilamiz.

Muattar ISMATULLAYEVA,
chet tillar
fakulteti talabasi.




Meni shaydo etgan bu go'zal ko'zlar,
Kimga boqishini bilmay jovdirar.
Nogahon to'qnashib ketsa nigohlar,
Yuzni o'girmoqlik chorasin izlar.

Borliq yashiringan qarachiqlarda,
Nelarni o'ylarkan, asli qorong'u.
Nogahon ma'noni topgan insonga,
Tabassum etajak va chimdim kulgu.

O'zga yellar kelib qochirdi ko'zni,
Boshqaga boqadi, beozor, ma'yus.
Men esa jimgina kuzatdim uni,
Qachondir qararmi, bizga ham gulyuz...

Go'zal XUDOYBERDIYEVA,
boshlang'ich ta'lim
fakulteti talabasi.

FAYLASUFLAR TAQDIRIDAN



Afsonaviy yunon donishmandi Epime-
nidning yolg'on so'zlagan kritlik haqidagi
mantiqiy ziddiyati necha asrlardan buyon
donishmandlar uchun yechib bo'lmasa
muammoligicha qolmoqda.

Bu zidlamaning mazmuni shunday: "Bir kritlik
so'zlay turib: "Men aldayapman", deydi yoki: "Hozir
men aytadigan so'zlar yolg'on", deyishi mumkin. Yo
bo'lmasa bunday deydi: "Aytgan so'zlarimning bari
yolg'on". Agar so'zlovchi chindanam yolg'on gapirgan bo'lsa, uning iqrori —
haqiqat. Aksincha, so'zlovchining aytganlari chin bo'lsa-yu, "yolg'on gapirdim",
desa, u rostdan ham yolg'on gapirgan. Shunday qilib, agar so'zlovchining iqrori
rost bo'lsa, u yolg'on gapirayotgan bo'ladi, aksincha iqrori yolg'on bo'lsa, gaplari
rostdir".

Ushbu mantiqiy ziddiyatlarning kashf etilishi ko'plab faylasuflarni boshi berk
ko'chaga kiritib qo'ydi. Faylasuf Xristipp (mil. av. 281-208-yillar) ana shu zidlamaga
bag'ishlangan uchta kitob yozdi. Kosslik Filet ismli donishmand esa bosh qotira-
qotira, ziddiyatni yecholmagach, alam ustida o'z joniga qasd qildi.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, taniqli yunon olimi, mantiq ilmining bilimdoni
Diador Kronos (mil. av. 307 yilda vafot etgan) hayotining so'nggi yillarida ushbu
zidlamani yechishga bel bog'lagan. U yechimni topmaguncha ovqat yemaslikka
ont ichgan va oxir-oqibat bandalikni bajo keltirgan.

TALABA TABASS'UMI



Mana, o'rtoqlar krizisni boshdan o'tkazayapmiz,
bu yil go'sht mahsulotlarining narxi oshib ketish
arafasida, shunga qanday chora ko'rasizlar?

Hamma jim o'tirsa bir otaxon turib:
— Endi ko'proq ishlashimizga to'g'ri keladi. Kuniga 8
soat emas, 12 soat ishlaymiz.
— Yashang, otaxon. Keyingi yil sut mahsulotlarining ham
narxi oshib ketsa nima qilaysizlar?
Yana hamma jim, biroz vaqt o'tib, o'sha otaxon turib:
— Unda 12 soat emas, 16 soat ishlaymiz.

— Baraka toping otaxon. Hamma shu otaxondek fikr qilishi kerak. Aytaylik undan
keyingi yil non mahsulotlarining ham narxi oshsa unda nima chora ko'rasizlar?

Otaxon yana turib:
— Agar shunday bo'lsa, noiloj 24 soat ishlashga majburmiz...
— Baraka toping, ota. Kechirasiz, siz o'zi nima ish qilaysiz?
— Go'rkovman bolam.

SPORTNI SEVING, SPORT BILAN BIRGA YASHANG!



O'zbekiston PENCAK SILAT Federatsiyasi Jizzax viloyati bo'limi barcha talaba-yoshlarimizni o'z safiga chorlaydi.

Institutimizning sport zalida dushanbadan juma kunigacha, soat 17:00 da sport mashg'ulotlari olib borilmoqda. Mashg'ulotlarga tajribali sport ustasi Musurmon Eshqobilov rahbarlik qilib kelyapti.

Murojaat uchun telefon: +99893-247-70-45

OBUNA - 2022

Aziz talabalar!

Sevimli gazetangiz "Ziyo chashmasi" ga 2022-yil uchun obuna boshlanganini ma'lum qilamiz.

Institutimiz hayotidan doimiy ravishda xabardor bo'lay desangiz, gazetamizga obuna bo'ling.

Gazetamizning bir yillik obuna bahosi — 20 ming so'm.

Institutning bankdagi hisob raqami:

400110860084017094100079003

INN 200343003

"ZIYO CHASHMASI" — SIZNING GAZETANGIZ

MUASSIS:
Abdulla Qodiriy
nomidagi
Jizzax davlat
pedagogika
instituti

Mas'ul muharrir: Abdukarim SHARIPOV

Korrektor: Lobar ABDUKARIMOVA

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy diqqat-e'tiborimizda bo'lgani sababli muallifga qaytarilmaydi.
Gazetadan ko'chirib bosish faqat tahririyat yozma ruxsati bilan amalga oshiriladi.

MANZIL:

Jizzax shahri, Sharof Rashidov shoh ko'chasi
4-uy. Jizzax davlat pedagogika instituti
Ma'naviyat va ma'rifat markazi binosi.

Jizzax viloyat matbuot va axborot
boshqarmasi 2006-yil 26-dekabrda 06-
017 raqami bilan ro'yxatga olingan.
Oyiga bir marta chop etiladi.
Bahosi erkin narxda.

Bosh muharrir: Abdug'afvor ABDURAHMONOV

Gazeta «Niso Poligraf»
bosmaxonasida A-3 formatida
chop etildi.

Adadi: 4000. Buyurtma
№

**Bosmaxona
manzili:**

O'rta Chirchiq tumani,
«Mash'al» mahallasi,
Markaz - 1.

Bosishga topshirildi: 21.10.2021 - 11:00